



2023- yil yanvar-avgust oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(72) 221-51-26



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Respublikada bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-avgust oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **803643,4 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **352040,8 ming AQSH** dollariga yoki **78,0 %** ga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **803643,4 +78,0 %**  
(2022- y.: **451602,6**)



**Saldo**  
2023- y.: **- 568632,3**  
(2022 y.: - 206638,4)



### Eksport

2023- y.: **117505,5 -4,1 %**  
(2022- y.: **122482,1**)



Tovarlarni: **117148,2**



Xizmatlar: **357,3**



### Import

2023- y.: **686137,9 +108,5 %**  
(2022- y.: **329120,5**)



Tovarlarni: **686137,9**



Xizmatlar: **0,0**











**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zahiralarga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.




TSAda eksport hajmi **117505,5** ming AQSH dollariga (**4,1 %** ga kamaydi) va import hajmi **686137,9** ming AQSH dollariga (**108,5 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-568632,3** ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



## JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

<p><b>XXR</b></p> <p>TSA – 366861,7</p> <p>Eksport: 21392,8 Import: 345468,9</p> <p> 45,6 %</p>	<p><b>Koreya Respublikasi</b></p> <p>TSA – 182600,9</p> <p>Eksport: 5,5 Import: 182595,4</p> <p> 22,7 %</p>	<p><b>Chexiya</b></p> <p>TSA – 65859,9</p> <p>Eksport: 77,9 Import: 65872,0</p> <p> 8,2 %</p>	<p><b>Rossiya</b></p> <p>TSA – 50934,1</p> <p>Eksport: 32260,1 Import: 18674,0</p> <p> 6,3 %</p>	<p><b>Turkiya</b></p> <p>TSA – 49287,1</p> <p>Eksport: 27255,9 Import: 22031,2</p> <p> 6,1 %</p>
<p><b>Qozog‘iston</b></p> <p>TSA – 19165,5</p> <p>Eksport: 9765,7 Import: 9399,8</p> <p> 2,4 %</p>	<p><b>Eron</b></p> <p>TSA – 8461,8</p> <p>Eksport: 5345,2 Import: 3116,6</p> <p> 1,1 %</p>	<p><b>Litva</b></p> <p>TSA – 8387,1</p> <p>Eksport: 113,9 Import: 8373,2</p> <p> 1,0 %</p>	<p><b>Germaniya</b></p> <p>TSA – 6723,3</p> <p>Eksport: 548,1 Import: 6175,2</p> <p> 0,8 %</p>	<p><b>Italiya</b></p> <p>TSA – 6295,9</p> <p>Eksport: 3568,8 Import: 2727,1</p> <p> 0,8 %</p>

Jizzax viloyati jahonning **69** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXRda (**45,6 %**), Koreya Respublikasida (**22,7 %**), Chexiya (**8,2 %**), Rossiyada (**6,3 %**), Turkiyada (**6,1 %**), Qozog‘istonda (**2,4 %**), Litvada (**1,0 %**) va Germaniyada (**0,8 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Belarus, Moldova va Turkmaniston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti.

## TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)



Rossiya – 50934,1



Qozog‘iston – 19165,5



Qirg‘iz Respublikasi – 4126,6























Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Koreya Respublikasi, XXR va Turkiya, Litva, Rossiya va Qozog‘iston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## JIZZAX VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>XXR</b>	<b>87747,2</b>	<b>78961,8</b>	<b>366861,7</b>
 <i>Eksport</i>	38450,9	14619,1	21392,8
<i>Import</i>	49296,3	64342,6	345468,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>48408,2</b>	<b>116808,7</b>	<b>182600,9</b>
 <i>Eksport</i>	2,1	103,5	5,5
<i>Import</i>	48406,1	116705,2	182595,4
<b>Chexiya</b>	<b>546,1</b>	<b>1054,2</b>	<b>65859,9</b>
 <i>Eksport</i>	-	-	77,9
<i>Import</i>	546,1	1054,2	65782,0
<b>Rossiya</b>	<b>41258,1</b>	<b>61799,7</b>	<b>50934,1</b>
 <i>Eksport</i>	29201,6	34154,0	32260,1
<i>Import</i>	12056,4	27645,7	18674,0
<b>Turkiya</b>	<b>49791,3</b>	<b>56425,4</b>	<b>49287,0</b>
 <i>Eksport</i>	27713,2	29852,0	27255,9
<i>Import</i>	22078,1	26573,4	22031,2
<b>Qozog'iston</b>	<b>10835,2</b>	<b>15443,0</b>	<b>9765,7</b>
 <i>Eksport</i>	9379,0	9090,9	9399,9
<i>Import</i>	10835,2	15443,0	9765,7
<b>Eron</b>	<b>3135,4</b>	<b>3460,9</b>	<b>8461,8</b>
 <i>Eksport</i>	1000,6	1356,8	5345,2
<i>Import</i>	2134,8	2104,1	3116,6
<b>Litva</b>	<b>6169,6</b>	<b>54996,0</b>	<b>8387,1</b>
 <i>Eksport</i>	59,9	92,5	113,9
<i>Import</i>	6109,7	54903,5	8273,2
<b>Germaniya</b>	<b>4292,9</b>	<b>4168,3</b>	<b>6723,3</b>
 <i>Eksport</i>	281,1	230,2	548,1
<i>Import</i>	4011,8	3938,2	6175,2
<b>Italiya</b>	<b>4801,5</b>	<b>5383,7</b>	<b>6295,9</b>
 <i>Eksport</i>	4365,4	4038,3	3568,9
<i>Import</i>	436,1	1345,3	2727,1



Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
 <b>Niderlandiya</b>	<b>61,4</b>	<b>5,6</b>	<b>4164,2</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	61,4	5,6	4164,2
 <b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>4118,8</b>	<b>7946,4</b>	<b>4126,6</b>
<i>Eksport</i>	3195,5	3933,8	3635,3
<i>Import</i>	923,3	4012,6	491,3
 <b>Afg'oniston</b>	<b>3226,5</b>	<b>5031,0</b>	<b>3152,8</b>
<i>Eksport</i>	3145,4	4615,4	2879,0
<i>Import</i>	81,1	415,6	273,8
 <b>Tojikiston</b>	<b>4249,8</b>	<b>4131,9</b>	<b>2797,4</b>
<i>Eksport</i>	2567,3	2535,4	2792,9
<i>Import</i>	1682,5	1596,5	4,6
 <b>Hindiston</b>	<b>2133,6</b>	<b>3021,2</b>	<b>2683,7</b>
<i>Eksport</i>	247,9	992,8	670,2
<i>Import</i>	1885,7	2028,4	2013,5
 <b>Turkmaniston</b>	<b>399,3</b>	<b>739,0</b>	<b>2106,1</b>
<i>Eksport</i>	129,0	327,4	327,5
<i>Import</i>	270,3	411,5	1778,6
 <b>Belgiya</b>	<b>1506,4</b>	<b>45,1</b>	<b>1990,3</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1506,4	45,1	1990,3
 <b>Shveysariya</b>	<b>253,9</b>	<b>359,4</b>	<b>1787,7</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	253,9	359,4	1787,7
 <b>Belarus</b>	<b>1410,2</b>	<b>1447,3</b>	<b>1762,2</b>
<i>Eksport</i>	179,5	592,5	556,1
<i>Import</i>	1230,8	854,7	1206,0
 <b>Daniya</b>	<b>0,3</b>	<b>9,3</b>	<b>1556,6</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	0,3	9,3	1556,6




## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust) \*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>803643,4</b>	<b>178,0</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	338159,6	3,0 m.	42,1
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	6416,1	55,3	0,8
Baxmal	6674,7	180,4	0,8
G'allaorol	287453,4	2,2 m.	35,7
Sharof Rashidov	9373,4	62,9	1,2
Do'stlik	8521,8	58,1	1,1
Zomin	19699,6	79,9	2,5
Zarbdor	13583,1	59,6	1,7
Zafarobod	3718,4	57,7	0,5
Mirzacho'l	4184,8	77,4	0,5
Paxtakor	12168,8	90,3	1,5
Forish	92396,8	107,0	11,4
Yangiobod	1272,1	32,3	0,2

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahar **42,1** % ulush bilan **338159,6** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,2** % ulush bilan **1272,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## JIZZAX VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-avgust oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **10,2** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **13,0** % ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-avgust oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **10,2** % ga ko'paydi va jami TSA'dagi ulushi **89,8** % ni tashkil etdi.



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, **82277,2** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **50404,8** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **31872,4** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## JIZZAX VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-avgust, ming AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 50934,1  
Eksport – 32260,1  
Import – 18674,0



### Qozog'iston

TSA – 19165,5  
Eksport – 9765,7  
Import – 9399,8



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 4126,6  
Eksport – 3635,3  
Import – 491,3



### Tojikiston

TSA – 2797,4  
Eksport – 2792,8  
Import – 4,6



### Turkmaniston

TSA – 2106,1  
Eksport – 327,5  
Import – 1778,6



### Belarus

TSA – 1762,2  
Eksport – 556,2  
Import – 1206,0



### Moldova

TSA – 478,6  
Eksport – 451,8  
Import – 26,8




### Ukraina

TSA – 442,7  
Eksport – 276,7  
Import – 166,0



### Ozarbajjon

TSA – 423,3  
Eksport – 298,1  
Import – 125,2



### Armaniston


TSA – 40,7  
Eksport – 40,7  
Import – 0,0



Jizzax viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**61,9 %**), Qozog'iston (**23,3 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**5,0 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

## JIZZAX VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Jizzax viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **76029,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **46257,9** ming AQSH dollari, import hajmi esa **29771,2** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




## JIZZAX VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'lishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **137** taga yetdi va ular tomonidan **117505,5** ming AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **4,1 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust, ulushi % da)



Jizzax viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami eksport</b>	<b>122482,1</b>	<b>117505,6</b>	<b>93,3</b>	<b>95,9</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	67,7	-	13,8 m.	-	0,1	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	1471,9	1755,8	135,6	119,3	1,2	1,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	52,9	-	-	-	-	-
Ichimliklar va tamaki	-	68,9	-	-	-	0,1
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	34566,2	17937,1	162,0	51,9	28,2	15,3
Sanoat tovarlari	61516,6	8520,8	70,2	13,9	50,2	7,3
Turli xil tayyor buyumlar	13282,6	14584,3	108,4	109,8	10,8	12,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3210,6	4822,4	102,6	150,2	2,6	4,1
Xizmatlar	320,5	357,3	117,3	111,5	0,3	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	7993,2	8751,0	176,4	109,5	6,5	7,4
Boshqa tovarlar	-	60707,9	-	-	-	-

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **99,7 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**7,3 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**15,3 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**12,4 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust )

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	16293,6	57,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	604,2	11,5
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	0,0	0,0
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	773,0	2,1 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	64,2	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	4,7	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	614,1	38,2
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	78,7	3,7 m.
Qog'oz massasi va makulatura	2831,1	4,9 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	325,9	184,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Bo'yoqlar va taninlar	4154,9	144,2
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	0,0	0,0
O'g'itlar	3213,5	82,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	482,8	65,6


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4694,9	8,8
Kauchuk mahsulotlar	3,4	81,1
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	3667,6	47,9
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	154,8	52,3
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	1705,4	144,1
Avtomobillar (shu jumladan havo transporti vositalari )	32,0	13,5
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	15,4	34,0
Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	13424,9	102,8
Har xil tayyor buyumlar	58,6	2,1 m.
	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	1100,8	0,0

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-avgust oyida MDH mamlakatlariga **50404,8** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **42,9** % ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-avgust oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Turkiya, XXR, Italiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **87,8** % ni tashkil etdi.



## RESPUBLIKA EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust, % da)





## JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-avgust, yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'рни	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya	34154,0	32260,1	117,0	94,5	1	1
Turkiya	29852,0	27255,9	107,7	91,3	2	2
XXR	14619,1	21392,8	38,0	146,3	4	3
Qozog'iston	15443,0	9765,7	142,5	63,2	3	4
Eron	1356,8	5345,2	135,6	3,4 m.	12	5
Qirg'iz Respublikasi	3933,8	3635,3	123,1	92,4	7	6
Italiya	4038,3	3568,9	92,5	88,4	6	7
Afg'oniston	4615,4	2879,0	146,7	62,4	5	8
Tojikisto	2535,4	2792,9	98,8	110,2	9	9
Pokiston	1456,7	1259,9	30,5	86,5	10	10
Polsha	3323,0	1096,2	3,4 m.	33,0	8	11
Hindiston	992,8	670,2	4,0 m.	67,5	13	12
Belarus	592,5	556,1	3,3 m.	93,9	16	13
Germaniya	230,2	548,1	81,9	238,1	22	14
Gruziya	314,7	454,2	2,1 m.	144,3	20	15
Moldova	74,1	451,8	-	6,1 m.	27	16
BAA	70,0	351,1	23,3	5,0 m.	28	17
Ispaniya	618,0	328,6	3,3 m.	53,2	15	18
Turkmaniston	327,4	327,5	2,5 m.	100,0	18	19
Bolgariya	89,2	322,3	-	3,6 m.	26	20





## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-avgust )\*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>117505,5</b>	<b>95,9</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	56880,7	127,0	48,4
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	3519,0	124,8	3,0
Baxmal	2929,6	171,3	2,5
G'allaorol	5783,5	94,3	4,9
Sharof Rashidov	4342,2	60,0	3,7
Do'stlik	7568,5	78,9	6,4
Zomin	5723,4	108,6	4,9
Zarbdor	10757,4	60,7	9,2
Zafarobod	955,1	75,4	0,8
Mirzacho'l	3638,7	78,0	3,1
Paxtakor	8719,2	80,4	7,4
Forish	5713,3	79,1	4,9
Yangiobod	954,3	29,8	0,8

Eng yuqori hajm,  
ming AQSH dollari



Jizzax sh.

56880,7

Zarbdor

10757,4

Paxtakor

8719,2

Eng quyi hajm,  
ming AQSH dollari



Yangiobod

954,3

Zafarobod

955,1

Baxmal

2929,6

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax sh. **48,4** % bilan **56880,7** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,8** % bilan **954,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Jizzax viloyati viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## JIZZAX VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-avgust oyida import hajmi ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **208,5 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**68,7 %**), sanoat tovarlari (**2,4 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**2,6 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-avgust oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **357017,4** ming AQSH dollariga ko'paydi va **686137,9** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## JIZZAX VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>329120,5</b>	<b>686137,9</b>	<b>190,0</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	168,9	2278,0	64,4	13,5 m.	0,1	0,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	249191,1	454604,5	2,2 m.	182,4	75,7	66,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4090,4	9941,4	2,6 m.	2,4 m.	1,2	1,4
Ichimliklar va tamaki	-	1,3	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16950,9	11093,1	119,0	65,4	5,2	1,6
Sanoat tovarlari	26412,6	16231,3	147,6	61,5	8,0	2,4
Turli xil tayyor buyumlar	5697,9	9096,3	67,2	159,6	1,7	1,3
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4195,1	4028,4	2,5 m.	96,0	1,3	0,6
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	22413,6	20939,6	128,9	93,4	6,8	3,1
Boshqa tovarlar	-	157924,2	-	-	-	23,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-avgust )

XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7654,3	143,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	7,8	0,0
Sabzavotlar va mevalar	760,8	18,9
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	0,0	0,0
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,3	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Metall rudalari va metall parchalari	90,8	2,2 m
Probka va yog'och-taxtalar	329,8	130,2
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	165,5	20,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	6848,6	11,7 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3092,8	88,2
Gaz, tabiiy va sun'iy	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2278,0	13,5 m.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	5069,6	84,2
Birlamchi shakldagi plastmassalar	7315,4	113,5
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1872,5	67,8
Noorganik kimyo moddalari	336,2	28,3


XSST bo'limi nomi	ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	3472,7	43,7
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1229,2	58,8
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	7695,5	67,9
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	288,9	117,5
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>		
Boshqa transport uskunalari	5,9	0,0
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	15772,2	16,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	92084,0	7,0 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	6115,5	112,2
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	2877,0	136,3
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1510,7	92,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	3432,7	194,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	139,9	5,4 m.



2023- yil yanvar-avgust natijalariga ko'ra, MDH mamlakatlari import ulushi **4,6** % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **95,4** % ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-avgust, ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-avgust oyida **261** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Litva, Turkiya, Qozog'iston va Rossiya) jami importning asosiy qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-avgust, % da)





## JIZZAX VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-avgust, yillar kesimida)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	64342,6	345468,9	130,5	5,4 m.	2	1
Koreya Respublikasi	116705,2	182595,4	2,4 m.	156,5	1	2
Chexiya	1054,2	65782,0	193,0	62,4 m.	16	3
Turkiya	26573,4	22031,2	120,4	82,9	5	4
Rossiya	27645,7	18674,0	2,3 m.	67,5	4	5
Qozog'iston	9090,9	9399,9	96,9	103,4	6	6
Litva	54903,5	8273,2	9,0 m.	15,1	3	7
Germaniya	3938,2	6175,2	98,2	156,8	8	8
Niderlandiya	5,6	4164,2	9,1	743,6 m.	50	9
Eron	2104,1	3116,6	98,6	148,1	11	10
Italiya	1345,3	2727,1	3,1 m.	2,0 m.	14	11
Hindiston	2028,4	2013,5	107,6	99,3	12	12
Belgiya	45,1	1990,3	3,0	44,1 m.	40	13
Shveysariya	359,4	1787,7	141,6	5,0 m.	25	14
Turkmaniston	411,5	1778,6	152,2	4,3 m.	23	15
Daniya	9,3	1556,6	31,0 m.	167,4 m.	49	16
Bangladesh	983,5	1376,4	95,8	139,9	17	17
Latviya	470,2	1288,4	92,3	2,7 m.	21	18
Belarus	854,7	1206,0	69,4	141,1	18	19
Gonkong	198,1	495,8	6,4	2,5 m.	29	20





## JIZZAX VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-avgust)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>686137,9</b>	<b>2,1 m.</b>	<b>100,0</b>
Jizzax sh.	281279,0	4,0 m.	41,0
<i>hududlar:</i>			
Arnasoy	2897,2	33,0	0,4
Baxmal	3745,0	188,3	0,5
G'allaorol	281669,9	2,3 m.	41,1
Sharof Rashidov	5031,2	65,8	0,7
Do'stlik	953,3	18,7	0,2
Zomin	13976,3	72,1	2,0
Zarbdor	2825,7	55,9	0,4
Zafarobod	2763,3	53,4	0,4
Mirzacho'l	546,0	73,7	0,1
Paxtakor	3449,6	130,8	0,5
Forish	86683,5	109,5	12,6
Yangiobod	317,8	43,6	0,1

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari



**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Jizzax shahar **41,0** % bilan **281279,0** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Yangiobod **0,1** % bilan **317,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.





## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-avgust oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **454604,5** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **123,0** % ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **66,3** % ga yetdi.



## MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-avgust )




2023- yil yanvar-avgust oyida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **203413,4** ming AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Jizzax viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR– **299360,4** ming AQSH dollari (**65,9** %), Chexiya– **65666,4** ming AQSH dollari (**14,4** %) va Koreya Respublikasi – **58657,6** ming AQSH dollari (**12,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI




2023- yil yanvar-avgust oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **16231,1** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **61,5 %** ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **2,4 %** ni tashkil etdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-avgust, ulushi, % da)



Sanoat mahsulotlari importi asosan yigirilgan ip, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**7695,5** ming AQSH dollari), cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**3472,7** ming AQSH dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar (**1229,2** ming AQSH dollari) va rangli metallar (**936,6** ming AQSH dollari) boshqalardan tashkil topgan.